BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA KOMPETENSIYASINI VEB-LOYIHALAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Sobirjonova Dilnoza Rustam qizi, Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti, “Fakultetlararo chet tillari ”kafedrasi o‘qtuvchisi
e-mail: sobirjonova.dilnoz@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kommunikatsiya kompetensiyasini veb- loyihalar orqali shakllantirish haqida so‘z boradi. Axborot kommunikatsiya kompetensiyasini veb- loyihalaridan qay tartibda foydalanilsa maqsadga muvoffiq bo‘lishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, axborot- kommunikatsiya, dialog, e-mail, global, veb-loyiha, kompetensiya;

ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ПОСРЕДСТВОМ ВЕБ-ПРОЕКТОВ

Абстрактный. В данной статье рассматривается формирование информационно-коммуникативной компетентности будущих учителей иностранных языков посредством веб-проектов. Отмечено, что использование информационно-коммуникационной компетенции в веб-проектах является целесообразным для этой цели.

Ключевые слова: технология, информация и коммуникация, диалог, электронная почта, глобальный, веб-проект, компетентность;

FORMATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS THROUGH WEB PROJECTS

Abstract. This article discusses the formation of information communication competence of future foreign language teachers through web projects. It is described how information communication competence can be effectively used through web projects.

Keywords: technology, information communication, dialogue, e-mail, global, web project, competence;

Kirish. Hozirgi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o‘sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm fanda ham katta o‘zgarishlar, sezilarli yutuqlaga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnlogiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Kompetensiya – bu lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” degan ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarini yecha olishga munosib

inson deb tushunsa bo‘ladi. “Kompetentniy” – yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, kompetensiyaga ega bo‘lgan, vakolatli masalani ko‘rib chiqishga haqli, ma’nolarida tarjima qilingan. “Kompetensiya“ – biron bir kishi xabardor bo‘lgan soha yoki masala, huquq yoki ixtiyor kabi tushunchalarda berilgan [1].

Kompetensiya tushunchasi quyidagicha: vazifalarni bajarish qobiliyatlari miqdori; shaxsiy xususiyatlar va xususiyatlarning kombinatsiyasi, ishlashga nazariy va amaliy tayyorlikning birligi va boshqalar deb ifoda etiladi. Shuningdek, biz bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarning ikki tomonlama e’tiborga ega bo‘lgan kommunikativ, axborot va tartibga soluvchi asosiy kompetensiyalari haqida gapirishimiz mumkin – bu o‘quvchilarga va o‘ziga qaratilgan. O‘qituvchining axborot – kommunikativ kompetensiyasi bu kasbiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kommunikativ bilim bu nima? Bu bo‘lajak o‘qituvchining umuman aloqa nima ekanligini, uning turlari, bosqichlari, shakllari, rivojlanishi qanday ekanligi haqidagi bilimdir. Bu qanday ta’lim usullari va texnikasi mavjudligi, qanday ta’sir ko‘rsatishi, ularning imkoniyatlari va cheklovlari qanaday ekanligi haqidagi bilimdir. Shuningdek, qaysi usullar har xil bolalar va turli xil o‘qitish vaziyatlari uchun foydali ekanligini bilishdir. Ayniqsa, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kommunikativ kompetensiyasi veb-loyihalar orqali chet tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini shakllantirish paydo bo‘ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Yurtimizda bugungi kunda chet tillarni o‘qitilishida yangicha davr boshlandi [2].

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kommunikatsiya kompetensiyasini veb-loyihalar orqali shakllantirish asnosida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab etilmoqda. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumta’lim maktablari va texnikum o‘quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Xususan chet tili o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga rivoj topib bormoqda. Chet tili fani to‘r aspektga ya’ni nutq ko‘nikmalarga (reading, writing, listening va speaking)ga bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘rsatmalar berilmoqda. Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini veb- loyihalar orqali foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Shu o‘rinda kompetensiyalar haqida fikr yuritishdan oldin, ushbu atamaning ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak.

Pedagog sifatida hozirgi kun talabiga xos bo‘lgan “Zamonaviy o‘qituvchi” nomiga va sifatiga erishishimiz uchun va bo‘lajak o‘qituvchilarni ham shunday tayorlashimiz uchun har bir pedagogimizda quyidagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini dasturini bilishlarini va undan to‘la qonli foydalanish o‘zlari o‘tayotgan dars mashg‘ulotlarida esa foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirishimiz lozim.

Har bir fan o‘qituvchilari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini savodxonligi bo‘yicha quyidagi boshlang‘ich ko‘nikmaga ega bo‘lishlari lozim: dars mashg‘ulotini boshlashdan avval dars jarayoniga tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchi mashg‘ulotda o‘quvchilarga nimani va qanday yangi bilimlarni bermoqchi. Yangi bilimlarni berishda albatta o‘qituvchi kompyuter haqida tushunchaga ega bo‘lishi va uning ishlash prinsiplarini bilishi lozim. Buning uchun esa unda kompyuter savodxonligi bo‘ishi lozim. Agar o‘qituvchi o‘zi bilimga ega bo‘lmasa unda o‘quvchilarga nima va qanday usulda o‘rgatadi? O‘qituvchi zamonaviy ta’lim jarayonida dasturiy ta’minot haqida bilimlarga ega bo‘lmasa, didaktik materiallarni eng sodda, tushunarli tarzda va o‘tayotgan fan dasturidan ishchi xujjatlarni tayyorlashda o‘zi uchun qulay, sodda, kam vaqt va kuch sarfaydigan matn

muharrirlari, elektron jadvallar va boshqa amaliy dasturlar to‘plamidan foydalana olsa o‘z ustida ishlashga va bilim ko‘nikmalarni rivojlantirishga ko‘proq vaqt ajratadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi bilan til o‘rganishga bo‘lgan imkoniyatlar kengaydi. Endilikda talabalar shaxsiy smartfonlari yoki kompyuterlari orqali ham chet tilini Web loyihalar orqali qiziqarli va oson o‘rganishmoqda. Web ilovalar orqali chet tilini o‘rganish ilmda yangi burilish bo‘ldi. Masalan, “Pen Pal” loyihasi har qanday yoshdagi odamlar uchun chet tili o‘rganishda foydali tajriba bo‘ldi. Agar siz yangi tilni o‘rganayotgan bo‘lsangiz, ushbu loyidada ona tilida so‘zlashuvchi “Pen Pal” ilovasi juda foydali bo‘lishi mumkin, o‘rganilayotgan tilida yozishni mashq qilish, yangi iboralarni o‘rganish va yozish haqida fikr-mulohaza olish mumkin. “Pen Pal” orqali til o‘rganishda nafaqat yozish balki muloqotni ham rivojlantirish mumkin.

Maqolada til o‘rganishning web ilova orqali individual va qiziq, oson o‘rganish yo‘llari tasvirlangan. Chet tilinini o‘rganishdagi erishilgan lingvistik va madaniy yutuqlar muhokama qilingan. Ilmiy maqolaning ma’lumotlari “Pen Pal” loyihasi ishtirokchilari orasida o‘tkazilgan suhbatlar, savol-javoblar va yozilgan xatlardan olingan. Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri - til o‘rganish jarayonida madaniyat va urf-odatlarini dunyo bo‘ylab targ‘ib qilishga imkoniyatlar yaratishdir.

Bu loyiha faqatgina talabalar bilan cheklanib qolmasdan, turli yoshdagi til o‘rganuvchilarni ham qamrab oladi. Chet el ingliz tili o‘qituvchilari bilan aloqaga chiqish ham “Pen Pals” loyihasi orqali bo‘lsa uzluksiz ingliz tili muhitini yaratishga yordam beradi.

Loyihaning afzallik taraflari:

- autentik til egasi bilan bo‘lgan oddiy muloqot ham, til o‘rganuvchiga ahamiyatli amaliy imkoniyatlar yaratadi va til o‘rganishda rag‘batlantiruvchi hamkor hisoblanadi;
- “Pen Pals” loyihasi imloviy xatolarni to‘g‘rilashga yordam beradi; norasmiy suhbatlar va so‘z birikmalarini o‘rganish tilni yaxshi biladigan autentik til egasi bilan so‘zlashganda ular uchun oddiy suhbatlarda ishlatilganligi uchun til o‘rganuvchiga o‘rganish osonlashadi;
- Til o‘rganuvchi nafaqat chet elda tajriba orttirishi, balki o‘z davlatida to‘liq tajriba orttirishi mumkin, ba’zida chet elda orttirilgan tajribadan ko‘ra muvaffaqiyatli hisoblanadi;
- Turli davlat va madaniyatga ega bo‘lgan odamlar bilan til o‘rganish yuzasidan xalqaro hamdo‘stlik aloqalarini o‘rnatish ham bu loyihada keng imkoniyatlar yaratadi [3].

Hozirgi texnologiya va ommaviy axborotlar rivojlanib kelayotgan bir davrda “Pen Pals” loyihasining ijobiy taraflari ko‘p bo‘lganligi bilan bir qatorda salbiy taraflari ham mavjud. Asosiy muammolardan biri bu til o‘rganuvchi “Pen Pals” loyihasidan foydalanayotganda Internet tarmog‘idagi senzurasi to‘g‘ri kelmaydigan internet saytlariga ham kirib qolishi mumkinligidir.

Bu muammoning oldini olish uchun Internet tarmog‘ining Whatsapp, Skype, Team, Zoom, Facebook messenger, Telegram ilovalaridan foydalangan holda til o‘rganuvchilarni bir guruhga to‘plab yoki yakka tartibda suhbatlar bevosita o‘qituvchi ishtirokida tashkil etilishi rejalashtiriladi. Bunda til o‘rganuvchi o‘qituvchi nazorati ostida bo‘ladi.

Agar til o‘rganuvchi maktab o‘quvchisi yoki oliygoh talabasi bo‘lsa, yuqorida keltirilgan salbiy sabablarning oldini olish uchun doimiy ravishda o‘qituvchi yoki til o‘rgatuvchi nazoratida bo‘ladi. Elektron pochta yoki ilova orqali yozilayotgan xatlar “screenshot” qilinib, o‘qituvchiga muntazam ravishda yuboriladi. Izlanishlar “Pen Pals” loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasida qilingan ilmiy ishlar mavjud emasligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston hududida ommabop

bo‘lgan har xil onlayn ilovalar mavjud. Ushbu ilovalardan foydalanish “Pen Pals” loyihasi kabi onlayn, lekin ishlash tartibi farqli. Ular quyidagilar:

Duolingo – bugungi kunda 9.6 million aktiv foydalanuvchilarga ega eng mashhur va keng qo‘llaniladigan ilova hisoblanadi.

Afzalliklari:

• Bepul;

• Barcha darajadagi o‘rganuvchilar: beginner, intermediate, advanced foydalanish imkoniyatiga ega;

• Mashqlar turli xil mavzularga moslab chiqilgan;

• O‘qish, yozish, gapirish, tinglash – barchasi uchun mashqlar mavjud;

• Kunning istalgan vaqtida istalgan muddat foydalanish mumkin;

Har bir bajarilgan mashqdan so‘ng harakatlanuvchi odamcha shaklidagi animatsiyalar foydalanuvchiga o‘ziga xos emotsiya beradi. Masalan, mashqlarni yaxshi bajarsangiz animatsion odamchalar harakatlanib sizga tabassum qiladi va zo‘r deb ishora ko‘rsatadi

Har safar sizga notanish bo‘lgan so‘zlarni turli ranglarda ajratib ko‘rsatadi, bu esa foydalanuvchiga aynan qaysi so‘z yangi ekanligini osongina bilib olishiga yordam beradi

Tandem: Language exchange – til o‘rganish ilovasi bo‘lib, millionlab odamlar bir-biriga o‘zlari o‘rganayotgan xorijiy tilni o‘rgatadilar va fikr almashadilar. O‘rganilayotgan xorijiy til faqat ingliz tili bo‘lishi shart emas, bu til o‘rganuvchining tanloviga bog‘liq.

Hello English – bu ilova orqali til o‘rganish jarayoni yanada interaktiv qiziqarli bo‘lishni boshlaydi, ya’ni bunda foydalanuvchi darajasiga qarab audio kitoblarni tinglashi, qiziqarli kontentga ega videolarni tomosha qilishi mumkin.

FluentU – ushbu ilova orqali dunyo bo‘yicha eng ko‘p tarqalgan tillardagi video suhbatlarni subtitr bilan ko‘rish mumkin. Bu ilova ko‘rib o‘rganish qobiliyati (Audio-visual learners) kuchli o‘rganuvchilar uchun o‘z qulayliklariga ega.

Hilokal Learn Languages Co - mobil ilova bo‘lib, audio qo‘ng‘iroqlar guruhi tuziladi va o‘rganilayotgan tilni amaliyotda qo‘llash yuzasidan yangi do‘stlar autentik til egasi bilan xorijiy tilda mukammal so‘zlashish imkoniga ega bo‘ladilar.

Hello Pal World - onlayn til o‘rganish mobil ilovasi bo‘lib, dunyo bo‘ylab 6.7 million a’zosi mavjud va ular 200 dan ortiq davlatdandir. Ilova orqali xohlagan vaqtda til o‘rganish yuzasidan suhbatlashish va tajriba almashinishi mumkin.

Italki hk limited - Education - onlayn til o‘rganish ushbu platformada o‘quvchi va o‘qituvchilar ishtirok etishadi, unda til o‘rganuvchilar videosuhbat orqali o‘qituvchilar bilan bog‘lanishlari mumkin. O‘qituvchilar o‘zlarining til bo‘yicha tajribalarini taklif qilib, erkin o‘qituvchilar sifatida pul topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [4].

Pedagog mutaxasislarimiz o‘z faoliyatlari davomida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligiga ega bo‘lishi bilan chegaralanib qolmasliklari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng samarali vositalaridan ta’lim samaradorligini oshirish yo‘lida to‘g‘ri, aniq va puxta texnologik xaritalar orqali foydalanish metodikasiga ham ega bo‘lishsa ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishlari mumkin. Ya’ni, har bir mashg‘ulot jarayonida fan o‘qituvchisi o‘zining dars jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng samarali vositalaridan didaktik vosita sifatida foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur.

Xulosa. Demak xulosamiz shundan iboratki, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot – kommunikatsiya kompetensiyasini veb-loyihalar orqali ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish ham bu jarayonni samarali bo‘lishiga olib keladi. Xususan ta’limda axborot kommunikatsiya kompetensiyasini veb-loyihalar orqali shakllantirish bugungi davr talabidir .Shunday ekan, zamonaviy o‘qituvchi o‘zini bilim, ko‘nikma va

malakalarini amaliyotida ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda va samarali qo‘llay olishi, kasbiy kompetentligining eng asosiy komponenti hisoblanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N. A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy- metodik asoslari. – Toshkent, 2007. – B. 315.

2. Юсупова, Ф. М. Об особенностях обучения русскому языку в условиях иного национального окружения. Academic research in educational sciences, 2(6), 2021. – P. 1324-1329.

3. Hall E. T. The Paradox of Culture. In the Name of Life. Essays in Honor of Erich Fromm. – New York, 1971.

4. Hall E. T. The silent language. – New York: Anchor Books, 1990.

5. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo‘llanma).
– Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. – B. 80.

6. Nurullayev U. A. O‘qitishning muammoli shakli va uning o‘quv joriy etishning nazariy-metodik jihatlari. Academic research in educational sciences, 2(2) 2021.